Alohida ish yuritish tartibida

HUQUQ VA FAKT TOʻGʻRISIDA NIZO

Alohida ish yuritish tartibida "huquq toʻgʻrisidagi nizo" va "fakt toʻgʻrisidagi nizo" tushunchalari bor. Soʻnggi yillarda bu tartibda fakt toʻgʻrisidagi nizo doim huquq toʻgʻrisidagi nizoga olib kelishi haqida koʻp gapirilmoqda. Bu masala boʻyicha ikki asosiy konseptual yondashuv mavjud.

Birinchisi shuki, fakt toʻgʻrisidagi nizo doim huquq toʻgʻrisidagi nizoni keltirib chiqaradi, shu sababli ularning alohida ish yuritish tartibida birgalikda mavjud boʻlishiga yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Ikkinchi yondashuvga koʻra, alohida tartibda ish yuritishda fakt toʻgʻrisidagi nizo nazariy jihatdan arizachi va manfaatdor shaxslar oʻrtasida boʻlishi mumkin. Bu nizo fuqarolik ishlari boʻyicha adolatli sudlov uchun zarur boʻlgan isbotlash jarayoni bilan izohlanadi.



Alohida tartibda ish yuritish doirasida huquq to‘g‘risidagi nizo va fakt to‘g‘risidagi nizo o‘rtasidagi farqni tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

Jean-Pierre Marguenaud “Les procédures civiles spéciales” nomli tadqiqotida kontinental huquq tizimidagi davlatlarda alohida tartibda ish yuritish institutining huquqiy tabiatini tahlil qilib, bu tartibning ixtiyoriylik va rasmiy tartib-qoidalarni o‘z ichiga olishini, shu bilan birga, sudning roli haqiqiy nizolarni hal qilishdan ko‘ra nizosiz faktlarni taqdim etilgan dalillar orqali tekshirishga qaratilganini ta’kidlaydi. Bunda huquq to‘g‘risidagi nizolarga bosh mezon sifatida qaraladi[1].

Arthur Taylor Von Mehren kontinental huquq tizimi asosidagi alohida tartibda ish yuritishda huquq to‘g‘risidagi va fakt to‘g‘risidagi nizolar o‘rtasidagi farq haqida yagona fikr shakllanmaganini, xususan, ushbu protsessda umumiy huquqiy normalar nizosiz tarzda ba’zi fuqarolik ishlariga nisbatan qo‘llanishini qayd etadi[2]. Bunday holatlarda huquqiy norma (huquq to‘g‘risidagi nizolar) qo‘llanishi yoki qo‘llanmasligi asosiy masala hisoblanadi, fakt to‘g‘risidagi nizolar esa ikkinchi darajali yoki umuman mavjud emasligi, bu esa manfaatdor shaxslarning faktlarga emas, ularning huquqiy ahamiyatiga e’tiroz bildirishi mumkinligini anglatadi.

David J. Galligan fuqarolik protsessida huquq to‘g‘risidagi nizolar va fakt to‘g‘risidagi nizolar o‘rtasida bog‘liqlik borligini, huquq to‘g‘risidagi nizo odatda huquqiy masala sifatida shakllanishini ta’kidlaydi. Masalan, meros olish huquqi vujudga kelishi uchun qonunda belgilangan talab bajarilganmi yoki ish staji haqiqiymi degan savollar huquq to‘g‘risidagi nizolarni tashkil etadi. Biroq fakt to‘g‘risidagi nizolar mavjudligini inkor etmaydi, masalan, ish stajini tasdiqlovchi hujjatlarning haqiqiyligini aniqlash. David J. Galligan alohida tartibda ish yuritishda huquq to‘g‘risidagi nizoni minimal darajaga tushirgan holda, sudning e’tibori asosan qonunni talqin qilish va uni faktlarga qo‘llashga qaratilganini ta’kidlaydi[3].

Rus protsessualistlari I. Rappoport, I. Jeruolis, P. Yeliseykin va A. Melnikovlar alohida tartibda yuritiladigan ishlar doirasida, arizachi va manfaatdor shaxs o‘rtasida fakt to‘g‘risida nizo yuzaga kelgan taqdirda, huquq to‘g‘risida nizoning yuzaga kelishi muqarrar ekanligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, huquq to‘g‘risidagi nizodan qat’i nazar, “sof shaklda” fakt to‘g‘risida nizo mavjud bo‘lishi mumkin emas, chunki arizachi va manfaatdor shaxs o‘zlarining huquqlariga asoslanmasdan faktlar to‘g‘risida nizolashishini tasavvur qilish qiyin[4].

Rossiya olimlarining bu fikrlarini to‘g‘ri deb qabul qilsak, alohida tartibda yuritiladigan ishlarning eng keng tarqalgan toifasi, ya’ni huquqiy ahamiyatga ega faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ishlarning sud tartibida aniqlanish tizimi mavjud emasligi haqida gapirish mumkin. Bu holatlarda huquqiy ahamiyatga ega faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ishlar notariat tomonidan tasdiqlanishi mumkin. Masalan, fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlash, fuqaroning ma’lum joyda bo‘lishi faktini tasdiqlash, fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlash, hujjatlarning taqdim etilgan vaqtini tasdiqlash, mualliflik va turdosh huquq obyekti taqdim etilgan vaqtni tasdiqlash kabi harakatlar ham huquqiy ahamiyatga ega bo‘lib, notarius tomonidan amalga oshiriladi va bu holatlar isbotlanishi talab etilmaydi. Shunday ishlar notarius tomonidan amalga oshirilishini “Rossiya Federatsiyasining notariat to‘g‘risida qonunchilik asoslari haqida”gi 4462-1-qonuni 35-moddasida[5] ko‘rish mumkin.

[1] Marguénaud, Jean-Pierre. Les procédures civiles spéciales. 2016. Dalloz.
[2] Mehren, A. T. The Civil Law System: An Introduction to the Comparative Study of Law. Harvard University Press, 2015
[3] Galligan, David J. Disputes and Dispute Resolution: The Influence of Legal Norms. Oxford University Press, 2010.
[4] См.: Елисейкин П.Ф. Судебное установление фактов, имеющих юридическое значение / П.Ф. Елисейкин. М.: Юридическая литература, 2013. С.24-28; Мельников А.А. Особое производство в гражданском процессе/ А.А. Мельников. М., 2014. С. 12-16.
[5] https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_1581/6514c5ab466eb9f175cec2dad46309ac70c759eb/

Bir tomondan, alohida ish yuritish tartibida koʻriladigan ish boʻyicha arizachida davlat organiga nisbatan huquq, masalan, boquvchisining vafoti munosabati bilan nafaqani olish huquqi yuzaga kelishi mumkin. Ushbu aniqlangan huquq sud protsessida tegishli organ tomonidan bajarilishi kerak. Shu bilan birga, alohida ish yuritish tartibida aniqlangan faktdan kelib chiqqan huquq va majburiyat toʻgʻrisidagi masala sud ishining doirasidan tashqarida. Bunday majburiyatning vujudga kelishi moddiy huquqning mavjudligi bilan bogʻliq boʻlib, unga koʻra koʻrsatilgan organ moddiy huquq normalarining gipotezasi asosida koʻrsatilgan maʼlum fakt aniqlangan taqdirda tegishli majburiyatni bajarishi zarur.

MASALAN, arizachi vafot etgan shaxsning qaramogʻida boʻlgani fakti aniqlanganda, Oʻzbekistonning 1993-yil 3-sentabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida"gi qonuniga[6] muvofiq pensiya jamgʻarmasi arizachiga boquvchisini yoʻqotganlik nafaqasini toʻlash majburiyatiga ega boʻladi. Agar boshqaruv organi arizachining koʻrsatilgan nafaqa olish huquqiga eʼtiroz bildirsa (moddiy huquq normalari asosida arizachining subyektiv huquqi yuzaga kelishiga koʻrsatilgan davlat organining eʼtirozi boʻlmaganda), faqat shu holatda koʻrsatilgan fakt toʻgʻrisidagi nizo huquqiy nizoga aylanishi mumkin.

Ikkinchi tomondan, dispozitiv prinsipga muvofiq huquq toʻgʻrisidagi nizolarni qoʻzgʻatish majburiy boʻlmagan alohida tartibda yuritiladigan ishlar boʻyicha boshqa manfaatdor shaxs faktning mavjud emasligini taxmin qilib, uning borligiga eʼtiroz bildirishi mumkin. Ammo jarayonning ushbu ishtirokchisi keyinchalik bu holatga ishonganda (yaʼni, faktning borligini tan olganda), arizachining ushbu faktdan kelib chiqadigan huquqiga eʼtiroz bildirmasligi ham mumkin.

S. Abramovning fikriga koʻra, "sudning vazifasi arizachining subyektiv fuqarolik huquqlarini aniq faktlar asosida va moddiy huquq normalariga muvofiq nizosiz va bir tomonlama tartibda tasdiqlashdan iborat"[7]. Bunda sud faoliyati maʼlum maʼnoda notarial organlar faoliyatiga oʻxshaydi, chunki ikkala holatda ham manfaatdor shaxsning arizasiga koʻra hech kim eʼtiroz bildirmagan taqdirda, subyektiv huquqlar nizosiz tartibda tasdiqlanadi.

Biroq notarial organ va sud faoliyati oʻrtasidagi asosiy farq shundaki:

notarial organ arizachining huquqlarini dalillarni tekshirmasdan va oʻrganmasdan, faqat aniq faktlar asosida tasdiqlaydi;

sud tartibida esa arizachining huquqlari dalillarni tekshirish va huquqiy baholash orqali aniqlanadi.

Professor M. Treushnikov notarial faoliyatning protsessual shaklini alohida ish yuritish shakli bilan taqqoslaydi: "mutlaqo analogik institutlar mavjud – tegishlilik, tegishli ish yuritish tartibi va boshqalar. Alohida ish yuritish tartibida ham, notarial ish yuritish tartibida ham tortishuv prinsipi qoʻllanmaydi, chunki u daʼvo tartibi prinsipidir".

Yuqoridagi olimlarning fikriga qisman qoʻshilish mumkin. Aksariyat hollarda sudning alohida tartibdagi ishlarni, ayniqsa huquqiy ahamiyatga ega faktlarni aniqlash toʻgʻrisidagi ishlarni koʻrib chiqishdagi faoliyati tashqi koʻrinishi jihatidan notarius faoliyatiga oʻxshab, maʼlum subyektiv huquqlarni nizosiz tartibda tasdiqlaydi.

Amaliyotda sud ishning holatlarini toʻliq oʻrganmasdan va dalillar yetarli boʻlmasa-da alohida tartibda yuritiladigan ishlar boʻyicha hal qiluv qarori chiqargan holatlar uchraydi. Masalan, oʻlganlik faktini belgilash toʻgʻrisidagi fuqarolik ishida fuqarolik ishlari boʻyicha Xoʻjaobod tumanlararo sudi yagona guvohning koʻrsatmasiga asoslanib, oʻlganlik faktini belgilagan. Shunga oʻxshash misol: Jixarev Valeriy Salixovich va Srajitdinov Salix Mustafanovich oʻrtasidagi qarindoshlik munosabati faktini aniqlashda fuqarolik ishlari boʻyicha Mirobod tumanlararo sudi uchinchi shaxslar

[6] https://lex.uz/docs/112314
[7] Абрамов С.Н. Судебное установление юридических фактов. Юридическое издательство Министерства юстиции Российской Федерации, 2008. С.5.
[8] Фуқаролик ишлари бўйича Миробод туманлараро судининг 2023 йил 28 ноябрдаги ҳал қилув қарори.

tushuntirishi va guvohlarning koʻrsatmasi bilan cheklangan holda ular oʻrtasidagi qarindoshlik faktini tasdiqlagan[8]. Ya'ni, ikkala holatda ham asosiy dalil manfaatdor shaxslarning koʻrsatmalari boʻlib, sud buni tanqidiy nuqtayi nazardan baholashi lozim edi. Biroq sud tomonidan alohida tartibda yuritiladigan aksariyat ishlar boʻyicha ish holatlari batafsil oʻrganiladi. Masalan, oʻlganlik faktini belgilash toʻgʻrisidagi fuqarolik ishida fuqarolik ishlari boʻyicha Andijon tumanlararo sudi manfaatdor shaxslarning koʻrsatmalari bilan cheklanmasdan, ish boʻyicha mahalla va obodonlashtirish boshqarmasidan ma'lumotnoma talab qilgan.

Shu sababli alohida tartibda yuritiladigan ishlarni sud tartibida koʻrib chiqishning notarial organlar faoliyati bilan oʻxshashligi tashqi boʻlib, bu huquqni qoʻllash amaliyotining ikki xil sohasi ekanligini, ularning har biri oʻziga xos xususiyatlarga, maqsad va tartiblarga egaligini qayd etish lozim.

Xulosa tariqasida alohida ish yuritish boʻyicha sud faoliyati bilan notarial idoralar faoliyati oʻrtasidagi farq dalillarni oʻrganish va tekshirishda ekanligini aytish mumkin. Bunda ushbu organlarning vakolatlarini cheklash mezoni belgilangan huquqiy faktning aniqligi hisoblanadi. Sud aniq boʻlmagan huquqiy faktlarni belgilaydi, ularni tasdiqlash uchun taqdim etilgan bir-biriga zid dalillarni tekshirish vaqtida aniqlangan faktning mavjudligi toʻgʻrisida nizo kelib chiqishi mumkin.

S. Ivanova va L. Bardinning fikriga koʻra, alohida tartibda fakt toʻgʻrisida nizo boʻlmasa, boshqa manfaatdor taraflarning ishtiroki ma'nosiz boʻladi. Bu fikrga T. Peskova ham qoʻshilib, "yuridik ahamiyatga ega boʻlgan faktlar va ushbu faktlar asosida yuzaga keladigan huquq oʻrtasidagi aniq bogʻliqlikni inkor etish mantiqsiz boʻladi" deb ta'kidlaydi.

Protsessualist olimlar David J. Galligan, L. Bardin va S. Ivanovaning fikriga qoʻshilsa boʻladi. Ular alohida tartibda yuritiladigan ishlar boʻyicha odil sudlovni amalga oshirishning zaruriy sharti isbotlash jarayoni boʻlib, uning tarkibiy qismi dalillarni oʻrganish va tekshirishdan iborat ekanini ta'kidlashgan. Alohida tartibda yuritiladigan ishlar boʻyicha aniq boʻlgan fakt toʻgʻrisida nizolar kelib chiqishi mumkin. Bunday nizolar arizachi va ma'lum bir faktning aniqlanishi natijasida huquqlariga ta'sir qilishi mumkin boʻlgan manfaatdor shaxs oʻrtasida yuzaga keladi. Ushbu nizoda arizachi ma'lum faktlarning borligini, manfaatdor taraf esa ularning yoʻqligini isbotlashga harakat qiladi. Agar alohida tartibda yuritiladigan ishlar boʻyicha fakt toʻgʻrisida nizo kelib chiqmasa, unda boshqa manfaatdor shaxslarning arizachi bilan birga sud jarayonida ishtirok etishi ma'nosiz boʻladi.

Fakt toʻgʻrisidagi nizolar va huquq toʻgʻrisidagi nizolar oʻrtasidagi munosabatni oʻrganish natijasida fuqarolik ishlari boʻyicha Mirobod tumanlararo sudida 2023-yil 28-noyabrda koʻrilgan 2-1002-2306/27797-fuqarolik ishidan yakuniy xulosa chiqarish mumkin.

Masalan, sudga meros qoldiruvchi bilan qarindoshlik faktini belgilashni soʻrab murojaat qilgan arizachining talablariga meros qoldiruvchining manfaatdor shaxs sifatida chaqirilgan farzandlari arizachining meros qoldiruvchi bilan hech qanday qarindoshlik aloqasi yoʻqligini va u meros qoldiruvchining qaramogʻida yashaganligini ta'kidlab e'tiroz bildirganlar. Bu holat fakt toʻgʻrisidagi nizodir va bu faktning belgilanishi natijasida huquq toʻgʻrisidagi nizo kelib chiqishi mumkin. Ya'ni, fakt toʻgʻrisidagi nizo huquq toʻgʻrisidagi nizoning tarkibiy qismi boʻlib, bu fikr huquqiy faktlarni belgilashda arizada qanday huquq vujudga kelishi haqida bayon qilish uchun majburiy qoidaning mavjudligi bilan izohlanadi.

Ushbu holatda fakt toʻgʻrisidagi nizo kelib chiqsa, ariza koʻrmay qoldiriladi va ishni da'vo tartibida koʻrib chiqish kerak boʻladi.

Yuqorida bayon etilgan protsessualist olimlarning turli huquq tizimlarida huquq toʻgʻrisidagi nizolar va fakt toʻgʻrisidagi nizolar masalasini qanday hal etish borasidagi fikrlari muhokama qilindi. Xorijiy olimlarning fikricha, fuqarolik protsessual huquqida alohida tartibda ish yuritishda huquq toʻgʻrisidagi nizolar fakt toʻgʻrisidagi nizolarga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega. Bunday tartibda sudning roli toʻliq sud jarayonini talab qilmasdan, ish materiallari asosida huquqiy baho berishdan iborat. Shunga qaramay, ayrim alohida tartibdagi fuqarolik ishlarida (masalan, vasiylik, meros) sudning faol roli (ya'ni, ishni oʻz mavjudligicha tekshirish) talab etilishi mumkinligini ham tan olishadi.

Sherali SUBXONOV,
TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquq kafedrasi oʻqituvchisi